



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 117-130 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINING TAHLILI



Sabirova Lobar Baxromovna

Renessans ta'lim universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Lobarxon87@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zsanoatqurilishbank ATB va Trastbank XAB misolida tijorat banklarining kredit portfeli tarkibi, sifati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Banklarning kreditlash strategiyasi, mijozlar segmentatsiyasi, kreditlarning sohalar bo'yicha taqsimoti hamda to'lovga layoqatsizlik darajasi statistik ko'rsatkichlar asosida o'rganilgan. Shuningdek, har ikkala bank kredit portfeli holatining qiyosiy tahlili o'tkazilib, ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit portfeli, tijorat banki, kredit sifati, Trastbank, O'zsanoatqurilishbank, to'lovga layoqatsiz kreditlar, bank tahlili.

Аннотация: В данной статье на примере АКБ «Узсаноатқурилишбанк» и ХАБ «Трастбанк» проанализированы структура, качество и тенденции развития кредитного портфеля коммерческих банков. Изучены стратегия кредитования банков, сегментация клиентов, распределение кредитов по отраслям, а также уровень неплатежеспособности на основе статистических показателей. Проведен сравнительный анализ состояния кредитного портфеля обоих банков и разработаны рекомендации по его совершенствованию.

Ключевые слова: кредитный портфель, коммерческий банк, качество кредитов, Трастбанк, Узсаноатқурилишбанк, проблемные кредиты, банковский анализ.

Abstract: This article analyzes the structure, quality, and development trends of the credit portfolios of O'zsanoatqurilishbank JSCB and Trastbank PJSC. The study is based on statistical indicators and evaluates the lending strategies, client segmentation, sectoral distribution of loans, and the level of non-performing loans in both banks. A comparative analysis is conducted to assess the current condition of their credit portfolios, and relevant recommendations for improvement are proposed.

Keywords: credit portfolio, commercial bank, loan quality, Trastbank, O'zsanoatqurilishbank, non-performing loans, banking analysis.

KIRISH

Kredit portfeli tijorat banklarining asosiy aktivlarini tashkil etadi va bankning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi hamda likvidligi darajasini bevosita belgilab beradi. Kredit portfelining sifati va tuzilmasi bank kapitalining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Agar bank kreditlarining katta qismi yaxshi baholangan, xavfi past bo'lgan mijozlarga ajratilgan bo'lsa, bu bankning daromad oqimini kafolatlaydi va moliyaviy

barqarorligini mustahkamlaydi. Aksincha, yomon sifatlikka ega, qaytmas kreditlar ulushi yuqori bo'lgan portfel bankning moliyaviy holatini izdan chiqaradi, kapital yetarliligini pasaytiradi va hatto bankrotlik xavfini keltirib chiqaradi.

Barqaror kredit portfeli tarkibining diversifikatsiyalangan bo'lishi, ya'ni turli tarmoq, hudud, valyuta yoki muddatlarga qarab muvozanatli taqsimlangani tavakkalchilikni kamaytiradi. Masalan, faqat bir sohaga yo'naltirilgan kreditlar portfeli o'sha sohaga xos iqtisodiy tebranishlardan bankni bevosita zarar ko'rishga olib keladi. Shu bois, portfelni diversifikatsiya qilish orqali bank bir sohadagi salbiy holatlarni boshqa sohadagi ijobiy oqimlar bilan qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuv bankning tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasining muhim qismidir va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kredit portfelining barqarorligini ta'minlashda bankning kredit siyosati va kredit jarayonlarini monitoring qilish tizimi muhim o'rin tutadi. Kreditlar ajratilishidan oldin mijozning kreditga layoqatliligi chuqur tahlil qilinishi, qarz yuki, moliyaviy hisobotlari, kafil va garov ta'minoti baholanishi zarur. Bundan tashqari, ajratilgan kreditlar bo'yicha muntazam monitoring olib borish, muddatidan oldin ogohlantirish tizimlarini joriy etish kredit sifati buzilishining oldini oladi. Ushbu amaliyotlar orqali kredit portfelining yomonlashuviga yo'l qo'yilmaydi, bu esa bankning barqaror daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklarining kredit portfellarini tahlil qilishda ularning egalik shakli — ya'ni kapitalida davlat ulushi mavjud yoki mavjud emasligi — muhim farqlovchi omil hisoblanadi. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar ko'pincha hukumat topshiriqlari asosida ijtimoiy yo'naltirilgan kredit siyosatini olib boradi. Masalan, ular aholining zaif qatlamlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi yoki kichik biznesni rag'batlantirish maqsadida kreditlar ajratadi. Bunday ijtimoiy funksiyalar esa tijorat mezonlaridan chekinishga, resurslarning nisbatan past rentabellikda joylashtirilishiga va oxir-oqibat bankning umumiy moliyaviy samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Boshqa tomondan, kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan, ya'ni xususiy tijorat banklari kredit portfelini shakllantirishda ko'proq bozor qonuniyatlari, rentabellik va xatarlarni baholash kabi mezonlarga tayangan holda harakat qiladi. Bu banklar moliyaviy resurslarni samaradli joylashtirishga intiladi, foyda olishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi va shu orqali yuqori darajadagi operatsion samaradorlikka erishadi. Shuning uchun rivojlanayotgan davlatlar moliyaviy sektorini baholashda, ayniqsa kredit portfeli sifati va samaradorligini o'rganishda, banklarning davlat yoki xususiy egalik shakli asosida qiyosiy tahlil olib borish zarur. Bu esa moliyaviy siyosatni takomillashtirishda va bank sektorining institutsional islohotlarini rejalashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bykova va Pindyuk (2019) tomonidan tayyorlangan ushbu tadqiqot Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida muammoli kreditlar (NPL) muammosini tahlil qiladi. Ilmiy-nazariy asos sifatida mualliflar moliyaviy barqarorlik nazariyalariga tayanib, muammoli kreditlarning bank tizimi va makroiqtisodiy muhitga ta'sirini baholaydi. Tadqiqotda muammoli kreditlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan,

iqtisodiy o'sish sur'atlari, ishsizlik darajasi va foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi o'rganilgan. Metodologiya sifatida panel regressiya va dinamik tahlil usullari qo'llanilib, turli mamlakatlardagi muammoli kreditlar dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozlar va noaniqlik davrlarida muammoli kreditlar darajasi oshib, bank tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, muammoli kreditlarni kamaytirish uchun institutsional islohotlar, kredit siyosatini kuchaytirish va bank nazoratini yaxshilash muhim ekani ta'kidlanadi.¹

Dimitras, Dokas, Mamou va Spyromitros (2024) o'z tadqiqotlarida Yevropa banklarining samaradorligini baholashda no-parametrik usullardan foydalanib, ayniqsa, yaxshi bajarilayotgan kreditlar (performing loans) samaradorligining ahamiyatini tahlil qiladilar. Metodologiya jihatidan mualliflar bank samaradorligini baholash uchun ma'lumot envelopment tahlili (DEA) kabi no-parametrik usullardan foydalanadilar. Ushbu usul banklarning nisbiy samaradorligini turli o'zgaruvchilar bo'yicha baholash va ularning kredit portfeli sifatiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda 2010–2023 yillar oralig'ida Yevropa banklarining panel ma'lumotlari tahlil qilinib, moliyaviy inqirozdan keyingi davrda performing loans samaradorligi banklarning umumiy barqarorligiga qanday ta'sir qilgani o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, samarali kredit siyosati yuritgan banklar barqarorroq bo'lib, ularning rentabelligi yuqoriroq bo'ladi. Shuningdek, yaxshi bajarilayotgan kreditlarning foizini oshirish banklar uchun risklarni kamaytirish va kapital yetarililigini oshirish imkonini berishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari moliyaviy regulyatorlar va bank menejerlari uchun muhim bo'lib, kredit siyosati va aktivlar boshqaruvining bank samaradorligiga ta'sirini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.²

Ozili (2019) o'z tadqiqotida muammoli kreditlar (NPL) va moliyaviy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, ushbu masalaning bank tizimi va iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qiladi. Metodologik jihatdan Ozili panel ma'lumotlarga asoslangan regressiya tahlilidan foydalangan bo'lib, turli mamlakatlardagi muammoli kreditlar va moliyaviy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik usullar bilan baholaydi. Tadqiqotda 2000–2016 yillar oralig'idagi bank va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lumotlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarning yuqori darajasi bank tizimining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kredit ajratish jarayonini cheklaydi va moliyaviy chuqurlashuvni pasaytiradi. Shu bilan birga, yaxshi rivojlangan moliyaviy tizimga ega mamlakatlarda muammoli kreditlarning salbiy ta'siri nisbatan yumshoqroq bo'lishi aniqlangan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, bank sektorini mustahkamlash, muammoli kreditlarni kamaytirish va moliyaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun samarali tartibga solish choralarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi.³

Kartikasary, Marsintauli, Serlawati va Laurens (2020) Indoneziya bank sektoridagi muammoli kreditlar (NPL) darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganib, ushbu masalaning moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilganlar. Tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, mualliflar Indoneziyaning tijorat banklariga oid empirik ma'lumotlardan foydalangan va panel regressiya tahlili yordamida muammoli

¹ Bykova, A., & Pindyuk, O. (2019). *Non-performing loans in Central and Southeast Europe* (No. 32). Policy Notes and Reports.

² Dimitras, A. I., Dokas, I., Mamou, O., & Spyromitros, E. (2024). Investigating the performance of European banks using non-parametric techniques: the role of performing loans efficiency. *EuroMed Journal of Business*, 19(4), 1066-1083.

³ Ozili, P. K. (2019). Non-performing loans and financial development: new evidence. *The Journal of Risk Finance*, 20(1), 59-81.

kreditlarning asosiy omillarini aniqlaganlar. Ular 2010–2019 yillar oralig'idagi makroiqtisodiy va mikroiktisodiy ko'rsatkichlarni o'rganib, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, foiz stavkalari, kapital yetarliligi va likvidlik kabi omillarning NPLlarga ta'sirini baholaganlar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, foiz stavkalarining oshishi va iqtisodiy o'sishning pasayishi muammoli kreditlar darajasini sezilarli ravishda oshiradi. Shu bilan birga, banklarning kapital yetarliligi va samarali risklarni boshqarish strategiyalari NPLlarning kamayishiga yordam berishi aniqlangan.⁴

Ferreira (2022) o'z tadqiqotida muammoli kreditlar (NPL) darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning dinamikasini tushuntirishga harakat qilgan. Ushbu ish moliyaviy barqarorlik nazariyasi hamda kredit xavfi boshqaruvi tushunchalariga asoslanadi. Muallif bank tizimidagi muammoli kreditlarning o'sishi banklar rentabelligiga, kapital yetarliligiga va umuman iqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Metodologik jihatdan Ferreira panel ma'lumotlarga asoslangan ekonometrik yondashuvdan foydalangan bo'lib, turli mamlakatlarda joylashgan banklarning muammoli kreditlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun fikslangan va tasodifiy ta'sir modellaridan foydalanadi. Tadqiqot 2005–2020 yillar oralig'idagi bank va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni qamrab olgan bo'lib, iqtisodiy inqiroz va pandemiya kabi omillarning NPLlarga ta'sirini baholaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning sekinlashishi, yuqori inflyatsiya va foiz stavkalarining oshishi muammoli kreditlar hajmining ko'payishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, banklarning samarali risk boshqaruvi va kapital yetarliligi darajasi NPLlarning ortishini cheklashda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Tadqiqot natijalari moliyaviy tartibga soluvchilar va bank menejerlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kredit xavfini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.⁵

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat bankari kredit portfelining amaldagi holatini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

AT "O'zsanoatqurilishbank"ning kredit portfeli 2017–2025 yillar davomida sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etgan bo'lib, bu bank faoliyatining kengayishi va moliyaviy imkoniyatlarining ortib borayotganidan dalolat beradi. 2017 yilda bankning kredit portfeli 8 645 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 65 498,4 mlrd so'mgacha oshgan. Bu esa 9 yilda kredit portfeli hajmining 7,6 baravarga ko'payganini anglatadi. Ayniqsa, 2017–2018 yillar oralig'ida kreditlar hajmi 2,3 baravarga, ya'ni 11 566 mlrd so'mga oshgan, bu davr bank kreditlash faoliyatining eng jadal sur'atlarda kengaygan bosqichi bo'lgan.


⁴ Kartikasary, M., Marsintauli, F., Serlawati, E., & Laurens, S. (2020). Factors affecting the non-performing loans in Indonesia. *Accounting*, 6(2), 97-106.

⁵ Ferreira, C. (2022). Determinants of non-performing loans: A panel data approach. *International Advances in Economic Research*, 28(3), 133-153.



1-rasm. AT "O'zsanoatqurilishbank" kredit portfelining nominal qiymatda o'zgarish dinamikasi⁶ (mlrd.so'mda)

2020–2025 yillar oralig'ida kredit portfelining hajmida izchil o'sish kuzatilgan bo'lib, yillik o'sish sur'atlari nisbatan barqaror kechgan. Masalan, 2020 yilda kreditlar hajmi 29 442 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 39 898 mlrd so'mga yetib, 10 456 mlrd so'mga oshgan, ya'ni 35,5 foizga yaqin o'sishni anglatadi. 2021–2025 yillar oralig'ida esa yillik o'sish o'rtacha 5 000–8 000 mlrd so'm atrofida bo'lgan, bu esa bankning kreditlash faoliyati yanada barqarorlashganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2024 va 2025 yillarda o'sish mos ravishda 9 049 mlrd so'm va 8 374 mlrd so'mni tashkil qilgan.



2-rasm. AT "O'zsanoatqurilishbank" kredit portfelining real qiymatda o'zgarish dinamikasi⁷ (mlrd.so'mda)


AT "O'zsanoatqurilishbank" kredit portfelining real hajmi bo'yicha ma'lumotlar, inflyatsiyadan tozalangan holatda, bank kreditlash faoliyatining asl iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. 2017 yilda real kredit hajmi 8 645 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 25 538,6 mlrd so'mga yetgan. Bu 2016 yilga nisbatan 3,0 barobar o'sishni anglatadi. Ushbu real o'sish nominal o'sishga nisbatan ancha past (nominal o'sish 7,6 barobar), bu esa inflyatsiyaning kredit portfelining real qiymatiga salmoqli ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2019 yilda kreditlar real hajmi

⁶ O'zsanoatqurilishbank ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁷ O'zsanoatqurilishbank ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

12 877,4 mlrd so'mga tushib, o'sish faqat 1,5 barobar bo'lgan. Bu davrda inflyatsiya bosimi va iqtisodiy beqarorlik real kredit hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

2020–2025 yillar oralig'ida real kredit portfelining hajmi barqarorlikni saqlagan holda sekin o'sgan. 2020 yilda real kreditlar hajmi 18 821,4 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 22 957,4 mlrd so'mga yetgan. 2022 va 2023 yillarda esa real qiymat deyarli o'zgarmagan (22 570,4 va 22 393,7 mlrd so'm), bu inflyatsiya ta'sirida kredit portfelining nominal hajmi o'sayotgan bo'lsa-da, real qiymatining barqaror qolayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2024–2025 yillarda real qiymatlar mos ravishda 24 456,3 mlrd va 25 538,6 mlrd so'mni tashkil qilgan, bu esa 2 yilda atigi 4,4 foizlik o'sishni bildiradi. Bu ko'rsatkichlar inflyatsiya darajasi yuqoriligi sharoitida bank faoliyatining real salohiyati sekin o'sayotganini bildiradi.



3-rasm. XAB Trastbank kredit portfelining nominal qiymatda o'zgarish dinamikasi⁸ (mlrd.so'mda)

Agar ushbu tahlilni avvalgi nominal qiymatlar bo'yicha tahlil bilan solishtirsak, sezilarli tafovutlar aniqlanadi. Nominal qiymatdagi o'sish 2017–2025 yillarda 7,6 barobar bo'lgan bo'lsa, real qiymatda atigi 3,0 barobar. Bu shuni ko'rsatadiki, kredit portfelining hajmi miqdoran ortgan bo'lsa-da, uning iqtisodiy salmog'i, ya'ni real sektorni moliyalashtirishdagi haqiqatdagi imkoniyatlari unchalik tez o'smagan. Demak, real qiymatdagi tahlil bankning kredit faoliyatini baholashda ancha muhim va inflyatsiyaning bank sektoriga ta'sirini to'laqonli ko'rsatadi. Shu bois, AT "O'zsanoatqurilishbank"da kredit hajmlarining nominal o'sishini real iqtisodiy qiymat bilan birga baholash — strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.


XAB Trastbank kredit portfelining nominal hajmi 2017 yildan 2025 yilgacha barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. 2017 yilda 562 mlrd so'm bo'lgan kredit portfeli hajmi, 2018 yilda 839 mlrd so'mga yetib, 1,5 barobar oshgan. Keyingi yillarda ham o'sish davom etib, 2019 yilda 1 284 mlrd so'm (2,3 barobar), 2020 yilda 1 737 mlrd so'm (3,1 barobar), 2021 yilda esa 2 243 mlrd so'mga (4,0 barobar) yetgan. Bu ko'rsatkichlar bankning kreditlash hajmi yil sayin ortib borayotganini va u o'z faoliyatini izchil

⁸ XAB Trastbankning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

kengaytirayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2019–2021 yillar oralig'ida har yili taxminan 30% atrofida o'sish kuzatilgan.

2022–2024 yillar davrida bank kredit portfelida yanada keskin o'sish qayd etilgan. 2022 yilda kreditlar hajmi 2 744 mlrd so'mga, 2023 yilda 3 495,8 mlrd so'mga va 2024 yilda esa 4 947 mlrd so'mga yetib, mos ravishda 4,9 barobar, 6,2 barobar va 8,8 barobar 2016 yilga nisbatan o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2023 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda 41,5% lik o'sish kuzatilgani bankning kreditlash faoliyatida keskin faollashuv yuz berganini bildiradi. Bu davrda bank o'z mijozlar bazasini kengaytirgan, korporativ kreditlar bilan bir qatorda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni ham faol oshirgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

2025 yilga kelib, XAB Trastbankning kredit portfeli 5 705,5 mlrd so'mga yetib, 2016 yilga nisbatan 10,2 barobar ortgan. Bu juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, bank kredit portfelining hajmi so'nggi 9 yilda deyarli har yili o'rtacha 30–35% ga o'sib borganini ko'rsatadi. Bu tahlil bankning faol kredit siyosatini olib borayotganini va moliyaviy muomalalarda ishtirok etish ko'lamining kengayganini anglatadi. Shu bilan birga, bu o'sish barqarorlik darajasi, kredit sifati, kredit bo'yicha risklar bilan ham muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerakligi tahlilchilarga eslatma sifatida xizmat qiladi.



4-rasm. XAB Trastbank kredit portfelining real qiymatda o'zgarish dinamikasi⁹ (mlrd.so'mda)

XAB Trastbank kredit portfelining real hajmi bo'yicha 2017–2025 yillar oralig'ida barqaror va izchil o'sish kuzatilgan. 2017 yilda 562 mlrd so'mni tashkil qilgan real kredit portfeli 2018 yilda 706,2 mlrd so'mga (1,3 baravar), 2019 yilda esa 945,6 mlrd so'mga (1,7 baravar) yetgan. 2020 yilda bu ko'rsatkich 1 110,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 2 baravarga oshgan. Har yili inflyatsiyadan tozalangan real ko'rsatkichlarning o'sib borayotgani, bank faoliyati faqat nominal emas, balki real qiymatda ham kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa bank kredit strategiyasining bozor ehtiyojlariga moslashuvchanligini bildiradi.

2021–2023 yillar oralig'ida XAB Trastbank kredit portfeli real qiymatda mos ravishda 1 290,6 mlrd so'm (2,3 baravar), 1 435,4 mlrd so'm (2,6 baravar) va 1 628,3 mlrd so'm (2,9 baravar)ga yetgan. Bu yillarda o'sish sur'ati past bo'lishiga qaramasdan,


⁹ XAB Trastbankning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

barqarorlik saqlanib qolgan. Ayniqsa, real qiymatda 2023 yilda kredit portfeli o'tgan yilga nisbatan 13,5% ga oshgani ahamiyatlidir. Ushbu o'sishlar bankning kredit siyosatida ehtiyotkorlik bilan yondashuvni saqlagan holda, kredit hajmini muvozanatli oshirishga e'tibor berganini ko'rsatadi.

2024 va 2025 yillarga kelib, XAB Trastbank kredit portfelinining real hajmi keskin oshgan: 2024 yilda 2 117,9 mlrd so'm (3,8 baravar), 2025 yilda esa 2 224,6 mlrd so'm (4,0 baravar)ga yetgan. Bu yillarda bank real sektorga kredit qo'yilmalarini sezilarli darajada ko'paytirgan. Nominal o'sishga qaraganda real o'sish ancha past bo'lsa-da, real qiymatdagi barqarorlik moliyaviy tizim ishonchliligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida inflyatsion ta'sirlarni hisobga olgan holda, bank kredit siyosatining sifat darajasi yuqoriligini bildiradi.

AT "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 2021 yil boshida 4 301 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yil boshida bu ko'rsatkich 9 864 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,3 barobarga oshgan. Bu o'sish har yili barqaror sur'atlarda davom etgan: 2022 yilda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsada (4 260 mlrd so'm), keyingi yillarda tezkor tiklanish va sezilarli o'sish (2023 yilda 5 463 mlrd, 2024 yilda 7 814 mlrd so'm) kuzatilgan. Bu esa bankning chakana moliyalashtirish bo'yicha faoliyati izchil takomillashayotganini ko'rsatadi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdori esa izchil o'sib borgan: 2021 yilda 35 598 mlrd so'mdan 2025 yilda 55 635 mlrd so'mga yetgan. Bu o'sish 4 yil davomida 56,3% ni tashkil qilgan bo'lsa-da, aynan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bilan solishtirilganda nisbatan pastroq sur'atda bo'lgan. Bu holat, bankning kredit portfelida sektorlararo muvozanatni asta-sekin diversifikatsiya qilishga urinayotganini anglatadi. Shu bilan birga, yuridik shaxslar portfeli doimiy ustunlikni saqlab qolmoqda – 2025 yilda ham 84,9% ulush bilan yetakchilik qilmoqda.



5-rasm. AT "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan ajratilgan kreditlarning sub'ektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹⁰ (mlrd.so'mda)

Kredit portfelinining tarkibiy tuzilmasi tahliliga ko'ra, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning umumiy portfeldagi ulushi 2021 yildagi 10,8% dan 2025 yilda 15,1% ga oshgan. Bu esa 4 yil davomida 4,3 foizlik o'sishni anglatadi. Aksincha, yuridik shaxslarga


¹⁰ O'zsanoatqurilishbank ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ajratilgan kreditlarning ulushi 89,2% dan 84,9% ga kamaygan. Bu o'zgarish AT "O'zsanoatqurilishbank" strategiyasida chakana bank xizmatlarini kengaytirish, xususan, ipoteka, iste'mol va mikrokreditlar bo'yicha jismoniy shaxslar segmentini faol jalb etishga urg'u berilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bankning kredit siyosati diversifikatsiyalashgan va barqaror moliyaviy o'sishka yo'naltirilganligini tasdiqlaydi.

XAB Trastbankda jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar dinamikasi tahlili, bank kredit siyosatining so'nggi yillarda qanday yo'nalishda o'zgarib borganini yaqqol ko'rsatadi. 2021 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi 252 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025 yilga kelib 2 808 mlrd so'mgacha oshgan, ya'ni 11,1 baravarga o'sgan. Shu davrda yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar 1 991 mlrd so'mdan 2 898 mlrd so'mgacha ko'tarilib, atigi 1,45 barabarga o'sdi. Bu holat bank kredit siyosatining bosqichma-bosqich jismoniy shaxslar yo'nalishiga ko'proq yo'naltirilayotganini anglatadi.

Kredit portfelidagi ulushlarga e'tibor qaratilsa, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning umumiy portfelidagi salmog'i 2021 yilda 11,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda 30,1 foizga, 2024 yilda esa 51,0 foizga yetgan. 2025 yilga kelib, ushbu ulush biroz pasayib, 49,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa-da, bu hali ham jismoniy shaxslar segmentining bank kredit portfelida tengi yo'q darajada kuchayganini ko'rsatadi. Ayni vaqtda yuridik shaxslarga yo'naltirilgan kreditlarning ulushi 2021 yildagi 88,8 foizdan 2025 yilga kelib 50,8 foizgacha kamaygan. Bu ko'rsatkichlar bank kredit portfelida muhim tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lganini anglatadi.


AT O'zsanoatbank kredit portfeli bo'yicha 2018–2024 yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar bank faoliyatida sezilarli transformatsion jarayonlar sodir bo'lganini ko'rsatadi. Jumladan, davlat tashkilotlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2019-yilda maksimal darajaga – 20,61 trln so'mga yetgan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu ko'rsatkich pasayib, 2023-yilda 13,21 trln so'mga tushgan. 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich 14,57 trln so'mga ko'tarilgan bo'lib, bu davlat sektori kreditlashidagi biroz faollik qaytganini bildiradi. Ushbu o'zgarishlar Prezidentning 2020-yil 12-martdagi PQ–5992-sonli farmoni asosida davlat banklarini transformatsiya qilish va bozor mexanizmlariga o'tkazish borasidagi chora-tadbirlari bilan bevosita bog'liq.



6-rasm. XAB Trastbank tomonidan ajratilgan kreditlarning sub'ektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹¹ (mlrd.so'mda)

Korporativ kreditlar dinamikasi esa keskin o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. 2018-yilda atigi 2,08 trln so'm bo'lgan korporativ kreditlar hajmi 2024-yilga kelib 37,81 trln so'mga yetgan, bu esa 18 baravardan ortiq o'sishni anglatadi. Xususan, 2019–2021 yillarda bu yo'nalishdagi kreditlash keskin faollashgan, bu esa iqtisodiyotda xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat siyosati, xususan bank sektoridagi erkinlashtirish choralari samarasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar hajmi ham yildan-yilga izchil o'sib borgan. 2018-yilda 0,72 trln so'mni tashkil etgan bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 8,02 trln so'mga yetgan, ya'ni qariyb 11 baravar o'sgan. Bu holat aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi oshib borayotganidan va moliyaviy inkluzivlik kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bunday rivojlanish, o'z navbatida, moliyaviy savodxonlikni oshirish, iste'mol kreditlari, ipoteka va boshqa bank mahsulotlariga talabning ortishi hamda elektron bank xizmatlarining kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarga kreditlash hajmining ortishi banklar uchun kredit risklarini boshqarish tizimini kuchaytirishni taqozo etadi.




7-rasm. AT "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan ajratilgan kreditlarning turlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹² (trln.so'mda)

AT O'zsanoatbankning overdraft kreditlari bo'yicha 2018–2021 yillar oralig'ida juda keskin o'sish kuzatilgan. 2018 yilda atigi 2 trln so'mni tashkil etgan overdraft kreditlari hajmi 2019 yilda 13,45 trln so'mga yetib, 572,5% ga o'sgan. 2020 yilda esa bu ko'rsatkich 31,28 trln so'mga oshib, 132,6% ga yana ortgan. 2021 yilda overdraft kreditlari portfeli misli ko'rilmagan sur'atda — 439,27 trln so'mga yetgan bo'lib, bu 2020 yilga nisbatan 1304,3% o'sishni anglatadi.

¹¹ XAB Trastbankning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi


¹² O'zsanoatqurilishbank ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



8-rasm. AT "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan ajratilgan overdraft kreditlarining o'zgarish dinamikasi¹³ (mlrd.so'mda)

Bu davr ichida bank mijozlarga qisqa muddatli likvidlik muammolarini hal etish imkonini beruvchi moliyaviy vosita sifatida overdraft kreditlarini faol targ'ib qilganini anglatadi. Ayniqsa, 2021 yildagi keskin o'sish, ehtimol, muayyan iqtisodiy vaziyatlar, jumladan likvidlik muammolari kuchaygan davrda bu turdagi kreditlar orqali tezkor moliyaviy yechimlar talab etilganini ko'rsatadi.

Biroq 2022 yildan boshlab overdraft kreditlari hajmi keskin kamaygan. Jumladan, 2022 yilda overdraft kreditlari 256,69 trln so'mni tashkil etib, 41,6% ga kamaygan. Ushbu pasayish tendensiyasi keyingi yillarda ham davom etgan: 2023 yilda overdraft hajmi 181,06 trln so'mga tushib, 29,5%, 2024 yilda esa 132,22 trln so'mga tushib, 27,0% kamaygan. Bu pasayish bankning risklarni boshqarish strategiyasini o'zgartirgani, yoki overdraft kreditlariga bo'lgan ehtiyoj kamaygani bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, bankning kredit portfeli tarkibini qayta optimallashtirish va uzoq muddatli, barqaror kredit mahsulotlariga e'tibor qaratish strategiyasi ham bunga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonlar overdraft kreditlarining portfeldagi ulushining kamayishiga olib kelgan.



9-rasm. AT "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarining turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi¹⁴ (mlrd.so'mda)

¹³ O'zsanoatqurilishbank ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

AT O'zsanoatbank tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar tahlili bankning mazkur segmentdagi faoliyati turli kredit turlari bo'yicha qanday o'zgarishlarga uchraganini aniq aks ettiradi. Ipoteka kreditlari 2019 yilda 898,14 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 5260,58 mlrd so'm ga yetib, olti yil ichida 5,8 baravarga o'sgan. Bu o'sish ipoteka kreditlariga talabning ortgani, shuningdek, bankning ushbu yo'nalishda ajratayotgan mablag'lar hajmi sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Xususan, 2023 yildan 2024 yilga o'tish jarayonida ipoteka kreditlari 1575 mlrd so'mga yoki 42,7% ga oshgani bu kredit turi bank portfelida yetakchi o'rinni egallayotganini bildiradi.

Avtokreditlar esa ko'p yillik o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lib, bu turdagi kreditlar 2019 yilda 350,22 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 661,67 mlrd so'mga yetgan. Biroq bu davrda maksimal ko'rsatkich 2023 yilda qayd etilib, 982,32 mlrd so'm bo'lgan. 2024 yilda avtokredit hajmi 2023 yilga nisbatan 320,65 mlrd so'mga yoki 32,6% ga kamaygan. Ushbu pasayish avtomobil bozoridagi o'zgarishlar, ehtimoliy import cheklovlari yoki kredit siyosatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mikroqarzarlar yo'nalishi bo'yicha esa ancha keskin o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2019 yilda 121,16 mlrd so'mni tashkil etgan mikroqarzarlar 2024 yilga kelib 1819,20 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 15 baravardan ortiq o'sgan. Ayniqsa, 2023–2024 yillar oralig'ida bu kredit turi bo'yicha 1074,48 mlrd so'mlik, ya'ni 144,2% ga o'sish qayd etilgan. Bu bank tomonidan mikroqarzarlar segmentida faoliyatning kengaytirilgani, ehtimol, kichik biznes, o'zini o'zi band qilish yoki qisqa muddatli ehtiyojlarga qaratilgan kredit mahsulotlari talabining oshgani bilan izohlanadi.

Iste'mol kreditlari dinamikasi esa notekis bo'lib, 2019 yilda 181,39 mlrd so'mni tashkil etgan ushbu kreditlar 2021 yilda 256,59 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, 2022 yilda keskin tushib, 110,16 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2023 yilda esa eng past darajaga — 73,45 mlrd so'mga tushib ketgan. Ammo 2024 yilda ushbu kreditlar hajmi 279,50 mlrd so'm ga yetib, 280% dan ortiq o'sish qayd etilgan. Bu bank tomonidan iste'mol kreditlariga qayta e'tibor qaratilganini yoki mijozlar tomonidan bu mahsulotga talab oshganini ko'rsatadi.

Boshqa kreditlar toifasida esa 2019–2022 yillar davomida barqaror pasayish kuzatilgan. 2019 yilda 123,11 mlrd so'm bo'lgan kreditlar 2022 yilda 11,42 mlrd so'mga tushib ketgan. Biroq 2023 va ayniqsa 2024 yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan — 2024 yilda 132 mlrd so'mga yetib, 2022 yilga nisbatan 1056% ga o'sish qayd etilgan. Ushbu keskin o'sish ehtimol bank yangi kredit mahsulotlarini taklif etgani yoki ilgari boshqa toifalarga kiritilgan kreditlarning qayta tasniflangani bilan izohlanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar – bank tizimini liberallashtirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, davlat kreditlaridan bosqichma-bosqich voz kechish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash choralari kreditlar taqsimotida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish, xizmatlar va agrar tarmoqqa nisbatan afzalliklar berilishi xususiy tashabbuslarni moliyaviy rag'batlantirishni anglatadi.

Kreditlar nominal qiymatining 2016 yilga nisbatan ko'rsatkichlari asosida bank faoliyatining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash mumkin. 2018 yilda

¹⁴ O'zsanoatqurilishbank ATBning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ushbu ko'rsatkich 2,3 barobar bo'lgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 7,6 barobarga yetgan. Bu esa nafaqat kredit portfeli hajmi o'sganini, balki bankning umumiy moliyaviy salohiyati kuchayganini va iqtisodiyotda kreditlash salohiyatining kengayganini anglatadi. Umuman olganda, mazkur davrda "O'zsanoatqurilishbank" o'zining kredit resurslarini doimiy oshirib borgan, bu esa uni mamlakatdagi yetakchi tijorat banklaridan biri sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan.

XAB Trastbankning strategik yo'nalishida jismoniy shaxslar segmentining o'sib borayotgan ahamiyatini ko'rsatadi. So'nggi besh yillikda bank jismoniy shaxslarning ehtiyojlariga ko'proq moslashgan, chakana kreditlashni jadallashtirgan. Natijada, bankning kredit portfeli muvozanatlasha boshlagan va 2024–2025 yillarda deyarli teng ulushda bo'lingan. Bunday transformatsiya bank uchun tavakkalchiliklarni diversifikatsiya qilish va daromad manbalarini ko'paytirish imkonini beradi. Shu tariqa XAB Trastbank kredit siyosatida jismoniy va yuridik segmentlar o'rtasida barqaror muvozanatga erishish sari harakat qilayotgani kuzatiladi.

O'zsanoatbank kredit portfelining strukturaviy o'zgarishi O'zbekiston bank tizimidagi chuqur islohotlarning amaliy natijasi hisoblanadi. 5992-sonli farmonda davlat banklarini transformatsiya qilish, ularni xususiylashtirishga tayyorlash, menejment tizimini yangilash va zamonaviy bank texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan edi. Bu islohotlar natijasida banklar faoliyati samaradorligi oshib, resurslar ko'proq xususiy sektor va aholiga yo'naltirilmoqda. Davlat kreditlari ulushi qisqarib, korporativ va iste'mol kreditlari ulushi oshgani bankning bozor tamoyillariga moslashayotganidan darak beradi. Bu esa bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotda muhim rol o'ynashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

AT O'zsanoatqurilishbank jismoniy shaxslar kredit portfeli tahlili shuni ko'rsatadiki, bank faoliyatida ipoteka va mikroqarzlar kreditlari asosiy ustuvor yo'nalish bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, avtokredit va iste'mol kreditlarida davriy pasayish va o'sishlar, boshqa kreditlarda esa keskin o'zgarishlar mavjud. Bu esa bank kredit siyosatining jismoniy shaxslar ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarib borayotganini hamda ichki bozor talablariga tezkor moslashuv mavjudligini ko'rsatadi.

Agar XAB Trastbank faoliyatini AT O'zsanoatqurilishbank bilan qiyoslaydigan bo'lsak, real kredit portfeli hajmi bo'yicha sezilarli farq mavjud. 2025 yilga kelib, O'zsanoatqurilishbankning real kredit portfeli 25 538,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 3 baravar oshgan bo'lsa, XAB Trastbankda ushbu ko'rsatkich atigi 2 224,6 mlrd so'm va 4 baravar oshgan. Bunda XAB Trastbankning o'sish sur'ati yuqoriroq bo'lsa-da, portfel hajmi O'zsanoatqurilishbankka nisbatan deyarli 11 barobar kichik. Bu farq banklarning kapitallashuv darajasi, bozordagi ulushi va yirik mijozlar bilan ishlash salohiyatiga bog'liq. Shu boisdan, kichik va o'rta miqyosli banklar, jumladan XAB Trastbank, real o'sishni ta'minlay olgan bo'lsa-da, kredit resurslarining umumiy miqdori jihatidan yirik banklar darajasiga hali yaqinlashmagan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, AT O'zsanoatqurilishbank kredit siyosatidagi transformatsiyalar nafaqat bank faoliyatining diversifikatsiyasini, balki iqtisodiy siyosatdagi muhim ustuvorliklarni – iqtisodiyotni liberallashtirish, real sektorni qo'llab-quvvatlash, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladigan tarmoqlarga kredit oqimini yo'naltirish kabi yo'nalishlarni ham yaqqol ko'rsatadi. Shu tariqa, sohalar

kesimidagi bu o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror va o'suvchan model shakllanayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bykova, A., & Pindyuk, O. (2019). *Non-performing loans in Central and Southeast Europe* (No. 32). Policy Notes and Reports.
2. Dimitras, A. I., Dokas, I., Mamou, O., & Spyromitros, E. (2024). Investigating the performance of European banks using non-parametric techniques: the role of performing loans efficiency. *EuroMed Journal of Business*, 19(4), 1066-1083.
3. Mirza, N., Afzal, A., Umar, M., & Skare, M. (2023). The impact of green lending on banking performance: Evidence from SME credit portfolios in the BRIC. *Economic Analysis and Policy*, 77, 843-850.
4. Ozili, P. K. (2019). Non-performing loans and financial development: new evidence. *The Journal of Risk Finance*, 20(1), 59-81.
5. Miyamoto, K. (2022). Quantum algorithm for calculating risk contributions in a credit portfolio. *EPJ Quantum Technology*, 9(1), 1-16.
6. Kartikasary, M., Marsintauli, F., Serlawati, E., & Laurens, S. (2020). Factors affecting the non-performing loans in Indonesia. *Accounting*, 6(2), 97-106.
7. Jakob, K. (2022). Estimating correlation parameters in credit portfolio models under time-varying and nonhomogeneous default probabilities. *Journal of Credit Risk*, 18(4).
8. Castillo, J. A., & Mora-Valencia, A. (2023). The effect of moral hazard on the SMEs credit portfolio guaranteed by Colombia's National Guarantee Fund. *Estudios Gerenciales*, 39(168), 379-386.
9. Mbeukam, L. S. (2024). *Pricing and hedging of transition risk in Credit Portfolio* (Doctoral dissertation, Université Paris Cité).
10. Ferreira, C. (2022). Determinants of non-performing loans: A panel data approach. *International Advances in Economic Research*, 28(3), 133-153.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari
12. O'zsanoatqurilishbank ATBning yillik hisobotlari. www.sqb.uz
13. XAB Trastbankning yillik hisobotlari www.trastbank.uz

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

